



MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING

PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Mamatova Sayyara Shavkatovna

Urganch davlat universiteti o'qituvchisi

sayyaram87@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada mustaqil ishlarni tashkil etish jarayonida mavjud qiyinchiliklar va muammolar, texnik sohada muhandislik ta'limi yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan bo'lajak muhandislarning mustaqil ta'limi hamda kasbiy-amaliy va texnik-texnologik faoliyati, mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik-psixologik jihatlari, mustaqil ta'lim olish jarayonini faollashtirish, talabalarning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda egallashga intilish kabi masalalar yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: talaba, mustaqil ta'lim, mustaqillik darajasi, pedagoglar, texnik soha, intellektual salohiyat, mustaqil ishlar, mustaqil topshiriqlar.

Аннотация: В данной статье рассмотрены трудности и проблемы в процессе организации самостоятельной работы, самостоятельного обучения будущих инженеров, обучающихся в сфере инженерного образования и профессионально-практической и технико-технологической деятельности, самостоятельного обучения, педагогико-психологические аспекты организации, активизации в процессе самостоятельного обучения выделено стремление студентов к самостоятельному приобретению теоретических знаний и практических навыков.



Ключевые слова: студент, самостоятельное обучение, уровень самостоятельности, педагоги, техническая сфера, интеллектуальный потенциал, самостоятельная работа, самостоятельные задания.

Abstract: This article examines the difficulties and problems in the process of organizing independent work, independent training of future engineers studying in the field of engineering education and professional, practical, technical and technological activities, independent learning, pedagogical and psychological aspects of organization, activation in the process of independent learning, the desire of students to independently acquire theoretical knowledge and practical skills is highlighted.

Key words: student, independent study, level of independence, teachers, technical sphere, intellectual potential, independent work, independent tasks.

Kirish. Mamlakatimizda qisqa davr mobaynida ta'lim tizimini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilib, o'g'il-qizlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda bilim olishi, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishini ta'minlash, qobiliyat hamda iqtidori, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Mehnat bozorida raqobatbardosh, malakali mutaxassislar tayyorlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Talabalarga yuqori darajadagi bilimni o'quv auditoriyasidagi mashg'ulotlar to'liq bera olmaydi. Buni amalga oshirishda mustaqil o'quv faoliyati to'ldiruvchi rivojlantiruvchi vazifasini bajaradi.

Inson hayotining har bir davrida uning mustaqillik darajasi o'ziga xos namoyon bo'ladi. Mazkur mustaqillik darajasi insonning rivojlanish sharoitlariga va zaruratga bog'liq holda yuqori yoki past bo'lishi mumkin [1, 125].



Oliy ta'lim muassasalarida nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda egallashga intilish – talaba faoliyatining ta'lim muassasasidagi eng ajralib turadigan xususiyati, mustaqil o'qib, bilim orttirish asosi hisoblanadi. Mustaqil o'qib, bilim orttirish jarayoni talabalarning mustaqil tayyorgarlik ko'rishi demakdir. Texnik sohada muhandislik ta'limi yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan bo'lajak muhandislarning mustaqil ta'limi kasbiy-amaliy va texnik-texnologik faoliyatga muvofiq mehnat natijasining samaradorligini oshirishga yo'naltiriladi. Bunda bo'lajak muhandis o'z mehnati natijalarini tahlil etib, o'z kasbiy texnologik faoliyati mazmunini aniqlaydi. Bo'lajak muhandisning mustaqil ta'lim olishidan asosiy maqsadi o'z kasbiy amaliy malakasini oshirish, kasbiy faoliyatida yuqori yutuqlarga erishishdan iborat [3, 10].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Respublikamizning taniqli olimlari N.A.Muslimov va O.A.Quysinovlar tajribalaridan kelib chiqib, mustaqil ishlarni uch turga ajratishni tavsiya qilinadi [2, 98]:

1. Yozma mustaqil topshiriqlarga quyidagilar kiradi: hisoblash uchun berilgan vazifalarni bajarish, umumlashtiruvchi va takrorlanuvchi jadvallarni to'ldirish, texnologik xaritalarni ishlab chiqish, laboratoriya, amaliy ishlar to'g'risida hisobotlar tuzish, turli organayzerlar asosida talabalar faoliyatini tashkil etish va boshqalar.

2. Grafik mustaqil topshiriqlarga quyidagilarni kiritish mumkin: turli loyihalarni tayyorlash, chizmachilik ishlarini eskizlashtirish, kesmalar va kesishmalarni tasvirlash (ayrim detal va tugunlarni chizib ko'rsatish va hokazo), sxemalar, grafiklar, diagrammalarni tuzish, kuzatish natijalarini tasvirlash va shunga o'xshash vazifalarni o'z ichiga oladi.

3. Amaliy xarakterdagi mustaqil topshiriqlarga quyidagi vazifalarni kiritish mumkin: talabalar o'qituvchining topshirig'i asosida mustaqil ishni bajarish jarayonida buyum va mahsulotlarni tayyorlash, jihoz va asbob-uskunalarini ta'mirlash, mahsulotga ishlov berish, hisoblash, yangi moslamalarni loyihalash, maket va modellar, namunalar tayyorlash kabi ishlarni amalga oshiradilar.



Bugungi kunda malakali mutaxassis tayyorlash jarayonini mustaqil ishlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki aynan mustaqil ishlarni bajarish jarayonida o'quvchilarda tanqidiy, ijodiy fikrlash reflekslari rivojlantiriladi. Ammo mustaqil ishlarni tashkil etish jarayonida ma'lum qiyinchiliklar va muammolar ham mavjud:

- ✓ tarqatma materiallarni tayyorlash masalasi. Pedagog tomonidan tayyorlangan tarqatma materiallar har bir talaba uchun ko'paytirilishi lozim. Talabalar soni o'rtacha 20 nafar bo'lishi mumkin. Har bir tarqatma materialni 20 tadan ko'paytirish uchun ma'lum mablag' talab etiladi. Pedagog har gal o'z hisobidan mablag' ajratish imkoniga ega emas;

- ✓ dars jarayonida tashkil etiluvchi mustaqil ishlarni ba'zan kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish usulidan foydalangan holda o'tkazish talab etiladi. Buning uchun kichik guruhlarda ishlashga qulay auditoriyalar talab etiladi, ammo bunday imkoniyatlar ayrim oliygohlarda hozircha yo'q;

- ✓ ko'pchilik pedagoglar mustaqil ishlarni tashkil etish mahoratiga ega emas;

- ✓ mustaqil ishlarni bajarish uchun talabalar talab etiluvchi bilimlar bilan yaxshi qurollangan, mavzuni chuqur o'zlashtirgan bo'lishlari lozim. Agar ma'ruza darsida talaba yetarli tushunchaga ega bo'lmagan bo'lsa, u topshiriqni ijobiy hal etish imkoniga ega bo'lmaydi [4, 18-20].

Shuning uchun mustaqil ishlarni tashkil etishda avvalambor bilimlarni faollashtirish, eslash, korrektirovka qilish va yagona xulosaga kelish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda fan-ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi jarayonini ham alohida e'tiborga olib, bitiruv malakaviy ish mavzularini buyurtmachilar bilan maslahatlashgan holda tanlash maqsadga muvofiqdir. Bitiruv malakaviy ishlarning natijalari buyurtmachilar tomonidan baholanadi va real vaziyatlarda ulardan foydalaniladi [5, 21-23].

Texnik oliy ta'limda mustaqil ta'lim olish jarayonini faollashtirish uchun talabalarda quyidagi xususiyatlarni shakllantirish zarur:



- mustaqil ta'lim olishga ishtiyoq (motiv);
- mustaqil ta'lim olish malaka va ko'nikmalari;
- mustaqil ta'lim olish layoqati.


Mustaqil ta'lim olishga faol rag'bat uyg'otuvchi omillar quyidagilardan iborat [6, 272]:

- mustaqil faoliyatga bevosita faol qiziqish;
- axloqiy estetik va ruhiy qoniqish motivlari.

Bilish ehtiyojlari rivojlanishining bosqichlari quyidagilar:

- elementar ilmiy-tadqiqot faoliyati yo'nalishi bosqichi (tashqi taassurotlarga ehtiyojni shakllantirish);
- olamni bilishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish bosqichi;
- bilish usulini egallash faoliyati sifatida mashq qilish ehtiyojini shakllantirish bosqichi;
- bilish ehtiyojlarini tanlashga yo'nalganligini shakllantirish bosqichi;
- mustaqil ta'limga bo'lgan ehtiyojni rivojlantirish bosqichi.

Ayniqsa, so'nggi bosqich tadqiqot ishi uchun ahamiyatli hisoblanadi. Chunki, mustaqil tahsil olishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish talabalarning yetuk, barkamol, o'z yo'nalishi bo'yicha malakali mutaxassis bo'lishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.





1 - rasm. Inson ehtiyojlari piramidasi

Texnik oliy ta'lim tizimida mustaqil bilim olish, nazorat qilish mustaqil ta'lim olishning asosiy omillaridan hisoblanadi. Mustaqil bilim olishda avvalo, talabalarda mustaqil ishlashga, erkin, ijodiy faoliyat yuritishga ehtiyojni shakllantirish lozim.

Tahlil va natijalar. Psixolog olim A.Maslouning tadqiqotlari natijalariga ko'ra inson ehtiyojlari piramidasida ushbu masalaga ijodiy yondashganligini ko'rishimiz mumkin [7, 260].

Ushbu piramidadan ko'rinib turibdiki, inson ehtiyojlari yuqorilab borgan sari u barkamollikka intilib boradi (1-rasm). Yetuklikka erishish uchun esa talabalarda faollik, mustaqillik, qiziquvchanlik xususiyatlari kamol topishi kerak. Bundan tashqari, bo'lajak muhandis texnik-texnologlar o'zlarining amaliy faoliyatida ish qobiliyatining pasayishi, charchash, holdan toyish, mehnat qilish, dam olish tartibi kabi jarayonlarga duch keladi. Shuning uchun bo'lajak muhandislar mehnat gigiyenasi va fiziologiyasi bo'yicha ma'lum bilim va malakalarga ega bo'lishlari kerak.

Mustaqil ishlar individual-didaktik maqsadlarni amalga oshirish nuqtai nazaridan ham 4 guruhga bo'linadi [8, 93]:

bilimlarni dastlabki shakllanishiga, idrok qilishga undaydigan vazifalar. Bunda talabalar maqsadga erishishi uchun nima talab qilinishini bilishi lozim. Vazifalar - axborotlar, ma'lumotlarni o'zlashtirishga qaratilgan bo'ladi [10, 471-472]:

o'zlashtirishga axborot, ma'lumotlarni xotirada saqlash va qayta jonlantirish, qayta ishlashga qaratilgan topshiriqlar. Bunda avval egallangan bilimlarni to'g'ri jalb qilish, faollashtirish asosida bajariladigan hamda aniq sharoitda tatbiq etish talab qilinadigan vazifalar beriladi;

avval o'zlashtirilgan, qolipga tushgan, tajriba to'planishi natijasidagi bilim, malaka, ko'nikmalarga yangicha nuqtai nazardan yondashishni talab qiluvchi topshiriqlar. Ularda



masalaning mohiyatini izlash, yangicha yechimlar topish, yangicha g'oya, fikrlar bilan ifodalashni talab etiladigan vazifalar beriladi;

ijodiy faoliyatga undovchi topshiriqlar. Bunda yangi yoki oldindan ma'lum bo'lsa-da, ungacha boshqacha nuqtai nazardan qaralgan g'oya, fikrlarni tadqiq qilish, ya'ni axborotlar to'plash, ular ustida ishlash, o'z fikrini bildirishga undaydigan topshiriqlar, vazifalar beriladi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida sanab o'tilgan fikrlarga asoslangan holda aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim jarayonini amalga oshirishda tizimli ishlarni yo'lga qo'yish, talabalarni mustaqil ishlashga o'rgatish ijodiy va ijtimoiy faol, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda o'z o'rnini topa olish malakasiga ega bo'lgan, istiqboliy vazifalarni qo'yish va hal qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga asos bo'ladi.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'quv-ijodiy tayyorgarlik tizimida ixtisoslik yoki umumkasbiy o'quv fanlaridan chuqur bilim va malakalarga ega bo'lishda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarining shakllanganligi asosiy rol o'ynaydi. Mustaqil ta'lim olish ko'nikmalariga ularning o'quv adabiyotlari bilan mustaqil ishlash, amaliy topshiriqlarni mustaqil bajarish va bajargan mustaqil topshiriqni mas'ul o'qituvchi va guruh o'quvchilari oldida himoya qila bilish kabi bilim va malakalari kiradi. Demak, mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik-psixologik jihatlarini inobatga olgan holda ta'limni samarali va sifatli tashkil etish mumkin.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Husanboyeva Q.P. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslari: Diss. ... ped.fan.dok. –Toshkent: O'zPFITI, 2004. – 261 b.
2. Mavlonova R., Raxmankulova N., Matnazarova K., Shirinov M., Xafizov S. Pedagogika. Darslik. - T.: «Fan va texnologiyalar». -142-b.
3. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariyasi va metodikasi. Monografiya. – T.: «Fan», 2009. -10-b.
4. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. Kasb ta'limi yo'nalishi bakalavrlarini tayyorlashda mustaqil ta'limning ahamiyati // Maktab va hayot. – Toshkent, 2004. - № 1. – B. 18-20.
5. Qo'ysinov O.A. Talabalarning mustaqil bilim olish mahorati darajalarini aniqlash omillari // Ta'lim texnologiyalari. – Toshkent, 2005. - №2. - B. 21 - 23.
6. Saidjonova, P.S. (2024). Oliy ta'lim tizimida pedagogik faoliyatning mazmuni va maqsadi. Educational Research in Universal Sciences, 3(4 SPECIAL), 270-274.
7. Sh, T. Z., & Kh, S. K. (2020). Innovative forms of education in Uzbekistan. International journal of innovations in engineering research and technology. IJIERT, 7(4), 258-261.
8. Siddiqova, S. G. (2019). Elektron ta'lim resurslarining yangi avlodi: tahlillar, arxitektura, innovatsion sifatlar. Ta'lim, fan va innovatsiya. Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal, 1, 91-95.
9. Tolipova J. Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish // Xalq ta'limi. – Toshkent, 2002. – № 4. – B. 102 – 103 .
10. Xayrullo, D., Olim, A., & Bekzod, I. (2023). Mashinali o'qitish texnologiyalarini co2 yordamida ekstraksiyalash jarayonida qo'llash. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(9), 470-476.
11. Нишоналиев У.Н. Формирование личности учителя трудового обучения: проблемы и перспективы. – Т.: «Фан», 1995. – 85 с.
12. <http://www.pedagog.uz/>